

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 375 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurt qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi.....	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики.....	237
Худайбергенова Адалат Неъматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqxonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
O'zbekiston respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish va bunda xorij tajribasi.....	348
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati.....	354
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va asoslash	358
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
O'zbekistonning xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yo'nalishlari.....	362
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Turg'unova Zohida Shavkat qizi, Umida Yuldasheva	
Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.....	367
Bobomurotova Manzura Panji qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	372
Berdaliyev Javohir Jahongir o'g'li	
Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holati tahlili	379
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIKNI VA HUNARMADCHILIKNI RIVOJLANISHI HOLATI TAHLILI

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

Toshken davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0006-2728-9264>

tukhtasinovzafar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holati tahlili amalga ishirotib.

Kalit so'zlar: mahalla, mahallalarda tadbirkorlik, hunarmadchilik, tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarish.

Abstract: This article analyzes the state of development of entrepreneurship and crafts in the mahallas of Fergana region.

Key words: mahalla, entrepreneurship in mahallas, crafts, management of entrepreneurship development.

Аннотация: В статье анализируется состояние развития предпринимательства и ремесел в махаллях Ферганской области.

Ключевые слова: махалля, предпринимательство в махаллях, ремесла, управление развитием предпринимательства.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, hunarmandchilik an'analari tiklash va mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli oshib borar ekan, mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni samarali boshqarish, bu sohalarida infratuzilmaviy va tashkiliy takomillashtirishni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy darajadagi tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati aholining bandligini ta'minlash, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o'sishni kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, aholi zich yashaydigan hududlarda hunarmandchilik va kichik biznesni rivojlantirish orqali mahalla iqtisodiyotini jonlantirish, ishsizlikni kamaytirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Bu esa mavjud boshqaruv tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, moliyalashtirishning cheklanganligi, biznes bilimlari va ko'nikmalarining etishmasligi va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan samarali menejment strategiyalariga ehtiyoj kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, nazariy asoslari va uning hududiy xususiyatlari bo'yicha MDH olimlaridan L.I.Abalkin, D.V.Xodos, G.S.Seyalova, V.V.Radayev, V.M.Vlasova, A.M.Samozkin, V.G.Gutman, I.A.Rodionova, V.G.Medinskiy, L.G.Sharshukova va A.V.Busiginlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Sharifxo'jayev, S.S.G'ulomov, Yo.Abdullayev, B.Yu.Xodiyev, M.S.Qosimova, Sh.N.Zaynutdinov, A.Sh.Bekmurodov, J.Kambarov, N.X.Jumayev, D.N.Raximova, N.Q.Yo'ldoshev, A.G'ofurov, M.R.Boltabayev, B.K.G'oyibnazarov, N.M.Maxmudov, S.K.Salayev, Sh.Ergashxodjayeva, U.V.Gafurov, D.A.Artiqova, D.S.Alimatova, M.M.Ibragimov, O.Kazakov, K.Kurpayanidi, M.Ashurovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirish xususiyatlari tadqiq etilgan. Biroq, mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng zich yashovchi, iqtisodiy va madaniy jihatdan serqirra hududi hisoblanib, kichik va o'rta biznes, an'anaviy hunarmandchilik rivojlangan uchta hudud Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlaridan iborat hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi hunarmandchiligining jonlanishi, avvallari shahrixon pichoqchiligi, Chust pichoqchilik va boshqalar kabi an'anaviy yo'nalishlar asosida kechmoqda¹. Ushbu hududda 2017-yil prezident farmoni bilan hunarmandchilarga keng imkoniyatlar yaratildi — yer, binolar, imtiyozli kreditlar, savdo-sotiq va eksport imkoniyati kengaytirildi.[13]

Hunarmandchilikni rivojlantirish chora-tadbirlarida mahallalar aholisi, xususan ayollar, kam ta'minlanganlar va yoshlar faol jalb qilinishi belgilangan. "Usta-shogird" maktablari tashkil etilib, hunarmandlarni uyushmalarga integratsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Farg'ona vodiysi mahallalarida tadbirkorlik va hunarmandchilikning rivoji iqtisodiy va madaniy potensialni birlashtirganda uzluksiz o'sishga yo'l ochadi. Mahalla qo'llab-quvvatlashi, imtiyozli kreditlar, logistik infratuzilma, usta-shogird yo'nalishlari va turizm mexanizmlari bilan kengaytirilmoqda, shu asosida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy hayot sifati, ish o'rinlari va eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi.

1-jadval. Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlar (dehqon, fermer xo'jaliklarisiz) soni to'g'risida ma'lumot

Nomi	Jami	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turdagi xizmatlar
Jami	34302	1237	5615	2061	11641	1339	1850	548	1220	8791
Oltiariq tumani	1962	72	246	98	596	342	118	32	57	401
Qo'shtepa tumani	1260	84	216	59	443	36	54	22	44	302
Bag'dod tumani	1316	62	261	80	389	20	93	17	34	360
Buvayda tumani	1354	42	206	50	536	28	44	33	63	352
Beshariq tumani	1212	90	149	36	398	39	38	7	58	397
Quva tumani	1524	74	240	80	522	41	82	27	51	407
Uchko'prik tumani	1744	49	449	115	635	44	60	12	54	326
Rishton tumani	1503	35	279	77	449	27	123	35	43	435
So'x tumani	983	102	157	56	372	24	29	7	26	210
Toshloq tumani	1388	61	234	96	490	54	62	24	50	317
O'zbekiston tumani	1518	46	333	41	505	48	79	8	49	409
Farg'ona tumani	1558	98	190	95	547	46	88	9	73	412
Dang'ara tumani	1450	72	314	66	512	41	66	7	38	334

1 https://uza.uz/oz/posts/fargona-vodiysi-hunarmandchiligi-tarixidan-shahrixon-pichoqlari-misolida_687538



Furqat tumani	896	33	155	43	315	19	48	6	33	244
Yozyovon tumani	1200	88	186	85	487	20	40	6	27	261
Farg'ona shahar	6057	100	652	589	1658	244	487	180	286	1861
Qo'qon shahar	3511	30	648	177	1300	141	156	60	142	857
Quvasoy shahar	1227	80	157	69	500	54	66	8	15	278
Marg'ilon shahar	2639	19	543	149	987	71	117	48	77	628

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida dehqon va fermer xo'jaliklarisiz ro'yxatga olingan xo'jalik subyektlari soni 63 946 tani tashkil etdi. Shundan 34 302 tasi faoliyat yuritayotgan, qolgan 29 644 tasi esa iqtisodiy faol emas. Bu holat – umumiy subyektlarning 46,3 foizi – iqtisodiy muhitdagi muammolar, moliyaviy cheklovlar yoki tartibga solish yuklari bilan bog'liq. Yil boshidan 6153 ta yangi subyekt tashkil etilgan, 2808 tasi tugatilgan bo'lib, ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilmoqda.

Farg'ona shahri, Marg'ilon, Qo'qon, Oltiariq va Uchko'prik hududlari iqtisodiy faolligi yuqori joylar sirasiga kiradi. Biroq ayrim tumanlarda, xususan, Dang'ara va Toshloqda, faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar ustunlik qilmoqda. Bu esa mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va barqaror biznes muhitini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyatida 2025 yil 1-yanvar holatiga ko'ra dehqon va fermer xo'jaliklarisiz faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 34 302 tani tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich viloyatdagi kichik biznes va tadbirkorlik sektorining yuqori darajada faol ekanligini ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, faoliyat turlari bo'yicha eng katta ulush savdo sohasiga to'g'ri keladi – 11 641 ta subyekt yoki jami subyektlarning qariyb 34 foizi shu yo'nalishda ishlamoqda. Bu holat Farg'ona viloyati iqtisodiy tizimida savdo faoliyatining yetakchi sektor ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, sanoat (5615 ta subyekt), boshqa turdagi xizmatlar (8791 ta), qurilish (2061 ta) va yashash hamda ovqatlanish xizmatlari (1850 ta) sohalari ham salmoqli o'rin tutmoqda.

Hududlar kesimida Farg'ona shahri eng ko'p faol subyektga ega bo'lib, jami 6057 ta korxona bu yerda faoliyat yuritmoqda. Ushbu subyektlarning asosiy qismi savdo (1658 ta), sanoat (652 ta) va boshqa xizmatlar (1861 ta) sohalarida to'plangan. Bu ko'rsatkich Farg'ona shahrining markaziy iqtisodiy hudud sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sektori – ayniqsa yashash va ovqatlanish (487 ta) hamda axborot va aloqa (180 ta) sohalarining ham jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ikkinchi o'rinda Qo'qon shahri (3511 ta subyekt) turadi. Qo'qonda ham savdo eng ko'p rivojlangan yo'nalish bo'lib (1300 ta), undan so'ng sanoat (648 ta) va boshqa xizmatlar (857 ta) keladi. Marg'ilon shahri ham yuqori iqtisodiy faollikka ega bo'lib, 2639 ta subyekt faoliyat yuritmoqda. Bu shaharlar viloyat iqtisodiyoti va tadbirkorlik infratuzilmasining asosiy tayanch nuqtalaridir.

Tumanlar kesimida esa eng faol hududlar qatorida Uchko'prik (1744 ta), Farg'ona tumani (1558 ta), O'zbekiston tumani (1518 ta) va Quva tumani (1524 ta) ajralib turadi. Uchko'prik tumanida sanoat sohasi (449 ta subyekt) va savdo (635 ta) asosiy yo'nalish sifatida ajralib turadi. Quva va O'zbekiston tumanlarida esa xizmat ko'rsatish va qurilish sohalaridagi subyektlar nisbatan ko'proq. Bu tumanlarda iqtisodiy faoliyatning sektoral diversifikatsiyasi ko'zga tashlanadi. So'x tumani esa o'ziga xos iqtisodiy holatga ega: 983 ta subyekt faoliyat yuritadi, ular orasida qishloq xo'jaligi (102 ta) va savdo (372 ta) sohalariga e'tibor yuqori. Bu tuman geografik jihatdan chekka hudud bo'lishiga qaramay, iqtisodiy faollik borligini ko'rsatadi.

Savdo sohasidagi subyektlar soni barcha tuman va shaharlar kesimida yetakchi o'rinda bo'lib, bu hududlarning bozor infratuzilmasi, logistika imkoniyatlari va ichki iste'mol talabining yuqoriligini ko'rsatadi. Sanoat sohasida esa ayniqsa Farg'ona shahri, Qo'qon, Marg'ilon va Uchko'prik tumanlari ajralib turadi. Qurilish sektori ham yirik shaharlarda nisbatan yuqori bo'lib, bu joylarda infratuzilmaviy rivojlanish davom etayotganini bildiradi. Yashash va ovqatlanish xizmatlari ham yirik urbanizatsiyalashgan hududlarda ko'proq bo'lib, bu hududlarning aholi zichligi, turizm va savdo markazlariga yaqinligi bilan izohlanadi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatmayotgan xo'jalik subyektlari soni 29 644 tani tashkil etib, bu umumiy ro'yxatga olingan subyektlarning qariyb yarmiga teng. Bu holat kichik biznes barqarorligi bilan bog'liq muammolar mavjudligini anglatadi. Faoliyatsiz subyektlarning eng katta qismi savdo (35,6%), sanoat va qurilish sohalariga to'g'ri keladi. Bu esa raqobatning kuchayishi, moliyaviy bosimlar va bozor talabining pasayishi kabi omillar bilan izohlanadi.



2-jadval. Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga yil boshidan yangi tashkil etilgan subyektlar (dehqon, fermer xo'jaliklarisiz) soni to'g'risida ma'lumot

Nomi	Jami	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turdagi xizmatlar
Jami	6153	448	1242	245	2604	191	386	169	188	680
Oltiariq tumani	355	18	58	12	128	53	27	17	17	25
Qo'shtepa tumani	290	30	88	10	95	7	14	8	9	29
Bag'dod tumani	247	12	70	18	85	2	20	1	9	30
Buvayda tumani	257	23	51	4	134	4	8		11	22
Beshariq tumani	261	49	36	1	121	6	8	3	10	27
Quva tumani	287	54	62	11	100	7	14	9	10	20
Uchko'prik tumani	283	19	75	13	124	8	12	5	4	23
Rishton tumani	312	15	80	14	126	2	25	11	6	33
So'x tumani	152	9	31	2	84	1	1	3	5	16
Toshloq tumani	250	20	66	5	100	10	14	5	7	23
O'zbekiston tumani	257	13	78	4	94	2	28	4	9	25
Farg'ona tumani	258	30	52	7	96	8	25	3	10	27
Dang'ara tumani	196	7	47	6	88	5	7	4	4	28
Furqat tumani	180	15	59	5	67	4	11	2	4	13
Yozyovon tumani	331	39	29	16	210	3	9	1	5	19
Farg'ona shahar	1013	47	114	71	376	36	100	43	33	193
Qo'qon shahar	521	5	94	22	254	18	20	20	22	66
Quvasoy shahar	279	40	44	9	125	5	21	6	3	26
Marg'ilon shahar	424	3	108	15	197	10	22	24	10	35

Hududlar kesimida Farg'ona shahri, Qo'qon, Marg'ilon va Quvasoyda faoliyatdan chiqqan subyektlar soni yuqori. Ayniqsa savdo va sanoat sohalarida to'xtashlar ko'p. Tumanlar orasida Buvayda, Dang'ara, Toshloq, O'zbekiston va Uchko'prikda faoliyatsizlik keng tarqalgan bo'lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik pastligi yoki tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi seziladi. So'x va Yozyovon esa nisbatan barqarorroq hududlar sirasiga kiradi. Umuman olganda, viloyatda kichik biznesni tiklash, faoliyatsiz subyektlarga zarur infratuzilmaviy va institutsional sharoitlar yaratish dolzarb ahamiyatga ega.



Hududlar kesimida Farg'ona shahri yangi tashkil etilgan subyektlar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda – 1013 ta yangi subyekt faoliyat boshlagan. Bu subyektlarning asosiy qismi savdo (376 ta), sanoat (114 ta) va boshqa xizmatlar (193 ta) yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Bu shahar markaziy iqtisodiy markaz sifatida tashabbuskorlik va biznes yuritish uchun qulay infratuzilma va iste'mol bozori mavjudligini ko'rsatadi. Undan keyingi o'rinda Qo'qon shahri (521 ta), Marg'ilon (424 ta) va Quvasoy (279 ta) shaharlaridir. Ushbu shaharlar ham savdo va sanoat sohalarida yuqori iqtisodiy faollikka ega bo'lib, buning sababi yuqori urbanizatsiya darajasi, transport yo'llariga yaqinlik va mavjud iqtisodiy muhitning ko'p tarmoqliligi bilan izohlanadi.

Tumanlar ichida eng yuqori o'sish Yozyovon tumaniga to'g'ri keladi – bu yerda yil boshidan 331 ta yangi subyekt tashkil etilgan. Ayniqsa savdo (210 ta) va qishloq xo'jaligi (39 ta) sohalarida sezilarli faollik kuzatilgan. Bu tuman qishloq xo'jaligiga yaqinligi va iste'mol bozorlari bilan bog'liqligi sababli savdo-sanoat yo'nalishining parallel o'sishini ko'rsatadi. Oltiariq (355 ta), Uchko'prik (283 ta), Quva (287 ta) va Rishton (312 ta) tumanlari ham yangi subyektlar soni bo'yicha yuqori o'rinda turadi. Bu tumanlarda qishloq xo'jaligi, sanoat, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ixtisoslashuv kuzatiladi. Masalan, Quva tumanida yangi ochilgan subyektlarning 54 tasi qishloq xo'jaligi, 62 tasi esa sanoat yo'nalishida faoliyat boshlagan. Shu bilan birga, Bag'dod, Dang'ara, O'zbekiston va Farg'ona tumanlarida ham yangi subyektlar soni nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo'lib, bu hududlarda ham iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy faoliyatning nisbatan yuqoriligidan dalolat beradi.

E'tiborga molik jihati shundaki, yangi tashkil etilgan subyektlar sonining umumiy raqamlaridan tashqari ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti ham strategik ahamiyatga ega. Sanoat sohasida, masalan, Farg'ona shahri (114 ta), Marg'ilon (108 ta), Qo'qon (94 ta) va Rishton (80 ta) hududlari yetakchi bo'lib, bu joylarda ishlab chiqarish infratuzilmasi va ishchi kuchi salohiyati nisbatan yuqoriligi bilan bog'liq. Qurilish sohasi bo'yicha esa Farg'ona shahri (71 ta), Qo'qon (22 ta), Yozyovon (16 ta) va Bag'dod (18 ta) tumanlari ajralib turadi, bu esa u yerdagi ko'chmas mulk bozori, infratuzilmaviy rivojlanish va qurilish buyurtmalarining yuqoriligini anglatadi. Axborot va aloqa yo'nalishida esa Farg'ona shahri (43 ta), Marg'ilon (24 ta) va Qo'qon (20 ta) peshqadam, bu esa raqamli xizmatlar va axborot texnologiyalarining markaziy shaharlar orqali kengayib borayotganini bildiradi.

2020–2025-yillarda Farg'ona viloyatining Rishton tumani mahallalari bo'yicha "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lgan ustoz va shogirdlar soni tahlili, tumanda hunarmandchilik sohasining barqaror va dinamik rivojlanayotganini ko'rsatadi. Umumiy hisobda, 2020-yilda 636 nafar ustoz va shogirdlar uyushmaga a'zo bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 965 nafarga, 2025-yilga esa 998 nafarga yetgan. Ushbu o'sish tendensiyasi tuman miqyosida hunarmandchilik faoliyatining kengayib borayotganini, aholi bandligi va iqtisodiy faollikning ushbu noan'anaviy, lekin an'anaviy soha orqali mustahkamlanayotganini anglatadi.

Tahlilga ko'ra, eng yuqori o'sish "Turaobod", "Istiqlol", "Qozi-Ahror", "Dekhqonobod", "Chinigaron", "Nosgar" va "Toshog'olik" mahallalarida kuzatilmoqda. Masalan, "Turaobod" MFYda 2020-yilda 80 nafar hunarmandlar bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 147 nafarga yetgan, ya'ni 84% ga o'sgan. Bu mahallaning hududiy ixtisoslashuvi yoki mahalliy boshqaruvning maqsadli qo'llab-quvvatlash choralari natijasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, "Istiqlol" MFYda 2020-yildagi 38 nafar a'zolar soni 2025-yilga kelib 58 nafarga yetgan, "Qozi-Ahror"da 40 nafardan 52 nafarga, "Chinigaron"da esa 68 nafardan 80 nafarga ko'tarilgan. Bunday turg'un o'sish, ushbu mahallalarda hunarmandlik an'analari mustahkam o'rinishgani va iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligini bildiradi.

Boshqa tomondan, ayrim mahallalarda esa bu ko'rsatkichlar butunlay nolga teng yoki juda past. Masalan, "Abdulloyon", "Tuda", "Saroy", "Qayrag'och", "Polvonobod", "Sohibkor", "T.Ahmedov", "Yangi yo'l", "Yangi avlod" kabi mahallalarda 2020–2025-yillar oralig'ida umuman hunarmandlar a'zolik holati qayd etilmagan. Bu holat, bir tomondan, bu mahallalarda iqtisodiy faollikning sustligi, hunarmandchilik bo'yicha tashabbuslarning yetishmasligi yoki imkoniyatlarning cheklangani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, ehtimoliy bozor va infratuzilma cheklavlari, bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi ham ta'sir etayotgan omillardandir.

Alohida ta'kidlash joizki, ba'zi mahallalarda son jihatidan kichik bo'lsa-da, yilma-yil ijobiy o'sish qayd etilmoqda. Masalan, "Guliston", "Dahbed", "Zoxidon", "Guzar", "Gumbaz", "Qo'shqayron", "Yoshlar" kabi MFYlarda 1-2 nafardan boshlab, 5-6 nafargacha ko'tarilish kuzatilgan. Bu esa, kichik boshlang'ich resurslar bilan ham mahalla darajasida hunarmandchilikni rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, korxona yoki kichik tadbirkorlik subyektlarining bankrot yoqasiga kelib qolishi yoki tugatilib ketishiga tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab, soliqqa tortilishi, imtiyoz berilmasligi, yil yakuniga qadar hali faoliyatini to'liq ishga tushirmagan yoki foyda olishga ulgurmagan yangi tadbirkorga yillik soliq yuki belgilanishi kichik tadbirkor faoliyatiga jiddiy ta'sir qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar tavsiya etiladi:

Har bir tuman-shaharlarda har chorak yakuni bo'yicha yangi tashkil etilgan va faoliyati tugatilgan xo'jalik subyektlari monitoringi tahlil qilish va mahalliy Kengashlarda tahliliy eshituvlarni yo'lga qo'yish;



Yangi tashkil etilgan korxonalarga kredit ta'minoti yetarli bo'lgan taqdirda kamida 3-5 yil muddatga aylanma mablag'ini shakllantirish uchun kredit ajratishni yanada jadallashtirish.

Yangi faoliyatini tashkil etgan xo'jalik subyektlari uchun elektr energiya va gaz uchun oldindan to'lov qilishni yengillashtirish, agar faoliyatini 3 yildan kam muddatda tugatganda butun davri uchun qayta hisob qilish tizimini joriy qilish.

Mahalla "yettiligi", ayniqsa hokim yordamchilari tashabbusi bilan tashkil etilgan yangi korxonalarni alohida reestrini shakllantirish, sun'iy ko'rsatkichlarni kamaytirish uchun ularning faoliyati barqarorligi bo'yicha uzoq muddatli (3-5 yil) mustaqil monitoring mexanizmlarini joriy etish va raqamli tahlil platformalarini yanada faollashtirish;

tadbirkorlik subyektlarining mahalliy davlat hokimiyati organlariga qilgan murojaatlari natijasini nazoratga olishni mahalliy Kengashlar vakolatlari, vazifalari va funksiyalarining reestriga kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. –T.: 2003. -37 b.;
2. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: 2002. -256 b.;
3. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. –T.: 2003. –258 b.;
4. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.: iqt.fan. dok...diss. -T. O'zBMA. 2017. – 274 b.;
5. Alimatova D.S. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish.: i.f.d. diss. avtoref. -T.: TMI. 2018. – 77 b.;
6. Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish. i.f.b.f.d. diss. avtoref.-T.TDIU. 2018. – 54 b.;
7. Cantillon, R. (1755). Essai sur la Nature du Commerce en Général.
8. Say, J.-B. (1803). Traité d'économie politique.
9. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development
10. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship (va 1960-yillardagi ishlar)
11. Sh. Shodmonov, V. G'afurov (2005). Iqtisodiyot nazariyasi (darslik), 305-bet.
12. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/397571599224606748/pdf/Implementation-Completion-and-Results-Report-ICR-Document-Developing-Artisanal-Livelihoods-in-Rural-Pakistan-RANG-P145420.pdf>.
13. https://uza.uz/oz/posts/fargona-vodiysi-hunarmandchiligi-tarixidan-shahrixon-pichoqlari-misolida_687538.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
